

TURKISTONDA JADIDLAR TOMONIDAN ODIL SUDLOV IDORALARINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI HARAKATLAR

Komolov Dilshod Pulatovich, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti “Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrasi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

ACTIONS OF THE JADIDS TO ESTABLISH JUDICIAL AUTHORITIES IN TURKESTAN



<https://orcid.org/0009-0000-6812-4577>

e-mail:

dilshod.komolov.2025@bk.ru

Komolov Dilshod Pulatovich, Department of History and Social Sciences, University of Economics and Pedagogy, Doctor of History (DSc), Professor

ДЕЙСТВИЯ ДЖАДИДОВ ПО СОЗДАНИЮ ОРГАНОВ ПРАВОСУДИЯ В ТУРКЕСТАНЕ

Комолов Дилшод Пулатович, кафедра истории и социальных наук Экономико-педагогического университета, доктор исторических наук (DSc), профессор

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkistonda jadid ma'rifatparvarlari tomonidan odil sudlov idoralarini tashkil etish borasida amalga oshirilgan ishlar tarixiy manbalar va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qiyosiy tahlil qilish asosida yoritib berilgan. Shuningdek, sovet hokimiyatini zo'ravonlik bilan o'rnatilishi, sudyalar daxlsizligining buzilishi, sudlarning mustabid tuzumning “jazo mashinasi” ga aylantirilishi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: jadid, siyosiy partiya, maromnoma, daxlsizlik, ayb, jazo.

Abstract: Based on a comparative analysis of historical sources and normative legal acts, this article highlights the work done by Jadid educators in Turkestan to create judicial authorities.

It also reveals the violent establishment of Soviet power, the violation of the inviolability of judges, and the transformation of courts into a “punitive machine” of a despotic regime.

Keywords: jadid, political party, ritual, immunity, guilt, punishment.

Аннотация: В данной статье на основе сравнительного анализа исторических источников и нормативно-правовых актов освещается работа, сделанная джадидскими просветителями в Туркестане по созданию органов правосудия. Раскрывается также насильственное установление советской власти, нарушение неприкосновенности судей, превращение судов в “карательную машину” деспотического режима.

Ключевые слова: джадид, политическая партия, ритуал, неприкосновенность, вина, наказание.

KIRISH. Hozirgi kunda taraqqiyparvar ajdodlarimizning, jumladan jadidlarning ilg'or g'oya va qarashlarini tadqiq etish, ularning milliy davlatchilik va huquq rivoji to'g'risidagi nazariy qarashlari bilan birga amaliy tajribalarini ham o'rganish juda dolzarb ahamiyatga ega. Jadidlar qonun ustuvorligini ta'minlash asosida demokratik jamiyat qurishga intilganlar. Biz bugun Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessansni bunyod etishda, albatta, jadid allomalarimiz qoldirgan boy huquqiy merosdan kengroq foydalanishimiz kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Tarixga nazar tashlasak Birinchi jahon urushi frontlaridagi mag'lubiyatlar, xalq xo'jaligidagi inqiroz Rossiya imperiyasiga halokatli ta'sir etdi. Iqtisodiy bo'hronlar xalq noroziligi bilan qo'shib, siyosiy inqirozga aylandi va 1917-yil fevral inqilobi natijasida imperator hokimiyati ag'darib tashlandi. Mart oyida Rossiyada Muvaqqat hukumat hamda ishchi, dehqon va askar deputatlari sovetlaridan iborat qo'shhokimiyatchilik vujudga keldi. 1917-yil 3-martda ushbu xabar Turkiston xalqiga e'lon qilindi. Turkistonda ham Muvaqqat hukumat idoralari va sovetlar tuzila boshlandi.

Muvaqqat hukumat yangi tarixiy sharoitda ham Turkistonni mustamlaka holida saqlab qolishga urindi. Turkiston general-gubernatorligi tugatilib, Turkiston qo'mitasi tashkil topdi. Hukumat tuzilmalarining mahalliy aholiga nisbatan munosabati sobiq imperiya davriga qiyoslaganda unchalik o'zgarmadi. Bu haqda 1917-yil 30-iyunda Andijon soveti a'zosi Abduqodir Qushbegiyev Turkiston qo'mitasiga topshirgan yozma ma'ruzasida o'lka soveti va Turkiston qo'mitasining olib borayotgan munofiqona siyosatiga shama qilib, shunday degan edi: "Tintuvlar, tergovsiz sud va muayyan bir aybnomalar qo'ymasdan qamoqqa olishlar, turarjoy erkinligining buzilishi – bularning hammasi inqilob, erishilgan erkinliklarni saqlab qolish nomidan qilinmoqda! Butkul qarama-qarshi tushunchalarni qanday bayon qilish mumkin, shiorlar bilan dalillar o'rtasidagi ziddiyatlarni qanday tushuntirsa bo'ladi? Kelajakdagi huquqlar nomidan ochiqdan-ochiq qonunsizlik yuz bermoqda"[1,-B.46].

MUHOKAMA. Shunga qaramay, Rossiyadagi inqilobiy jarayonlar Turkiston musulmon aholisining siyosiy faollashuviga sabab bo'ldi. Musulmon ziyoli va ulamo yetakchilarining tashabbusi bilan "Sho'roi Islomiya", "Sho'roi Ulamo", "Turon", "Turk adami Markaziyat (Federalist) firqasi" kabi siyosiy tashkilotlar vujudga keldi. Ular tashkil etgan qurultoylarda Turkistonning davlat tuzilishi, boshqaruv shakli, adliya idoralarining bo'lajak holati muhokama qilindi. Masalan, 1917-yil 12-14-iyulda Farg'ona shahrida "Turk adami Markaziyat (Federalist) firqasi" siyosiy partiyasining birinchi qurultoyi bo'lib o'tdi. Ushbu qurultoyda Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov hamda ularga hammaslak bo'lgan o'nlab jadidchilik harakatining taniqli namoyondalari tomonidan "Turk adami Markaziyat (Federalist) firqasi" siyosiy partiyasining Maromnoma va Nizomnomasi ishlab chiqildi. E'tiborga loyiq tomoni shundaki, jadid mutafakkirlari Maromnomada nihoyatda muhim masalalardan biri sifatida adliya idoralariga alohida o'rin ajratdilar.

Maromnomaning sakkizinchi bobi "Adliya masalasi" deb nomlangan bo'lib, olti moddani o'z ichiga olgan. Jumladan, ushbu bobning 1-moddasida sud mahkamalari va adliya organlari har qanday aralashuvdan ozod bo'lishi va shariat hamda qonunlarga bo'ysunishi lozimligi ko'rsatib o'tilgan. 3-moddada esa ijroiya organlari sudyalarning tayinlanishi, bir ishdan boshqa ishga o'tishiga, shuningdek, tergovning borishiga aralashmasligi va ta'sir qilmasligi, jazolar tizimi parlament tomonidan ishlab chiqilgan konstitutsiya hamda qonunlar asosida belgilanishi ta'kidlanadi. 5-moddada tergov va sud ishlarini ko'rish albatta, advokat ishtirokida olib borilishi lozimligi ko'rsatib o'tilgan edi[2,-B.7]. Shuningdek, qurultoyda fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili va dinidan qat'i nazar sud oldida teng huquqliligi va tegishli xatti-harakatlari uchun qonun oldida bir xil javobgarligi, agarda biror shaxs tegishli tashkilotlar ko'rsatmasi bilan hibsga olingan taqdirda, unga 24 soat ichida ayb e'lon qilinishi lozimligi ta'kidlandi[2,-B.7].

Musulmon siyosiy tashkilotlari mustaqil sud hokimiyati tashkil etish tarafdori edilar. Jumladan, ular tomonidan sudyalarning daxlsizligini ta'minlash, davlat idoralari va mansabdor shaxslarning sudlar faoliyatiga aralashuviga yo'l qo'ymaslik, aybsizlik prezumpsiyasi kabi g'oyalarning o'lg'a surilishi o'sha davr nuqtayi nazaridan ulkan voqea edi. Turkistonda musulmon siyosiy tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiya asosida demokratik davlat tashkil etish uchun barcha asoslar mavjud edi. Biroq bolsheviklar partiyasining zo'ravonlik bilan hokimiyatga kelishi siyosiy jarayonlarni mutlaqo boshqa o'zanga burib yubordi.

Xuddi Rossiyada bo'lgani singari, Turkistonda ham bolsheviklar partiyasi aholi o'rtasida katta ta'sirga ega emas edi. Yerli aholi ularning puch va'dalariga ishonmadi va musulmon siyosiy tashkilotlarga ergashdi. Qonuniy, demokratik yo'l bilan hokimiyatni egallashga ko'zi yetmagan bolsheviklar zo'ravonlik yo'lini tanladi. Petrograd voqealarining ta'sirida 1917-yil 1-noyabrda Toshkentda zo'rlik bilan sovet hokimiyati o'rnatildi. Hokimiyatni qurol bilan qo'lga kiritgan bolsheviklar partiyasi yangi davlat boshqaruvini tashkil etish masalasiga o'ta sinfiy va shovinistlaracha munosabatda bo'ldi. Bu 1917-yil 15-22-noyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan o'lka sovetlarining III qurultoyida yaqqol namoyon bo'ldi. Qurultoy bolsheviklarning tashabbusi va tazyiqi bilan o'lkadagi yangi hokimiyatning rahbar organi tarkibiga ko'p millatli mahalliy aholining birorta ham vakilini kiritmadi. Bu bilan yangi boshqaruv tizimi Turkiston xalqlariga mustaqillik berishni xohlamasligi va sobiq imperiya mustamlakalarini o'z tasarrufida saqlab qolish uchun barcha choralarni ko'rishini ma'lum qilgan edi.

Turkistonda sovet hokimiyati o'rnatilgandan so'ng sobiq imperiya tartiblari bekor qilinib, yangi boshqaruv tizimini tashkil etishga kirishildi. Jumladan, 1917-yil 24-noyabrda RSFSR XKS qabul qilgan sud haqidagi birinchi dekretga asosan 1917-yil 12-dekabrda Turkiston XKS sud to'g'risida buyruq e'lon qildi[3,-C.2-3]. Unda sobiq Rossiya imperiyasining barcha sud mahkamalari, chunonchi, okrug sudlari, sud palatasi bekor qilinib, saylovlar asosida tuziladigan yangi sudlar bilan almashtirilishi

qayd etilgan edi. Sobiq sud mahkamalari bilan birga prokuror nazorati, tergov va advokatlar tashkiloti ham tugatildi.

NATIJARLAR. Eski sud tizimi bekor qilingach, amalda yangi sovet sudlari tashkil topmadi. Natijada, Turkiston o'lkasi Adliya xalq komissarligi RSFSR XKSga telegramma orqali murojaat etib, yangi sovet sudlari tuzilgunga qadar sobiq imperiya sudlari faoliyatiga ruxsat berishni so'raydi. Ushbu holat o'rganib chiqilib, Markazning ko'rsatmasi bilan 1917-yil 31-dekabrda Turkiston XKS shoshilinch dekret qabul qildi. Unda sovet sudlari tuzilguniga qadar sobiq imperiya sudlari faoliyat yuritishi, siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan ishlar esa mahalliy sovetlarga taqdim etilishi ko'rsatib o'tilgan edi [4].

Sovet hokimiyatining sud sohasida yuritgan siyosati keskin norozilikka sabab bo'ldi. Garchi sobiq sudyalarning faoliyatiga vaqtinchalik ruxsat berilsa-da, biroq ularning hammasi ham o'z vazifasiga qaytmadi. Buning oqibatida, jamiyatda yalpi qonunsizlik muhiti vujudga keldi. Ma'muriy davlat idoralari, mansabdor shaxslar sud vakolatini o'zlashtirib ish yuritir, fuqarolarni noqonuniy qamoqqa olish, sud-tergovsiz jazoga tortish avj oldi.

Siyosiy tuzumning beqarorligi mamlakatda yangi sud tizimini qaror toptirishga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 1917-yilda tashkil topgan sovet hokimiyati faqat 1919-yilga kelib, ya'ni oradan ikki yil o'tgachgina yangi sudlarni tashkil etishga muvaffaq bo'ldi. Shunda ham sovet sudlari o'ta ziddiyatli tarzda faoliyat yuritdi. Jumladan, favqulodda komissiya, sovet xavfsizlik idoralari sudlar faoliyatiga aralashib, ishni o'z manfaati yo'lida hal etishga erishgan. Arxiv hujjatlarida bayon etilganidek, favqulodda idoralar sudyalarning hukm va qarorlarini bekor qilib, ishni qaytadan ko'rishga buyruq berar, bu talabni bajarmagan sudyalarning esa qamoqqa olinardi[5].

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, Turkistonda jadid ma'rifatparvarlari tomonidan bir qator siyosiy tashkilotlar tashkil etildi. Ushbu tashkilotlar tomonidan mustaqil sud hokimiyatini barpo etishning nazariy asoslari, konsepsiyalari ishlab chiqildi. Qurultoylarda ular tomonidan ishlab chiqilgan odil sudlov idoralari tashkil etish

borasidagi aksariyat tamoyillar xalqaro huquq normalariga muvofiq edi. Bu esa jadid ma'rifatparvarlarining davlat boshqaruvi, siyosiy bilimlar borasida o'z davrining yetuk bilimdonlari ekanligidan dalolat beradi. Biroq, 1917-yilda Turkistonda zo'rvonlik bilan o'rnatilgan sovet hokimiyati bunga yo'l bermadi. Keyinchalik tashkil etilgan sovet sudlari hukmron tuzumning jazo quroli sifatida ish yuritdi va mustabid tuzum manfaatlarining himoyachisiga aylantirildi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A'zamxo'jayev S. Turkiston Muxtoriyati: Milliy-demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – B. 46.

2. Turk adami Markaziyat (Federalist) firqasi Maromnomasi // Fan va turmush. – Toshkent, 1990. – № 7. – B. 7.

3. Сборник декретов и приказов Совета Народных Комиссаров Туркестанской Республики. –Ташкент: Типография ТАССР, 1918. – С. 2-3.

4. O'zbekiston Milliy arxivi R-38-fond, 2-ro'yxat, 4-ish, 55-varaq.

5. O'zbekiston Milliy arxivi R-38-fond, 2-ro'yxat, 54-ish, 119-varaq.

